

SERGEY SERGEYEVICH PROKOFYEVNING FORTEPIANO IJODI HAMDA
“ALEKSANDR NEVSKIY” KONTATASI

Qodirjonova Savriniso Muhammadtursun qizi
ADPI Musiqa ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13899673>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sergey Sergeyevich Prokofyevning kompozitorlik ijodi hamda yakkahon, xor va orkestr uchun yozilgan vokal instrumental asari “Aleksandr Nevskiy” kontatasi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kontata, drama, janr, humor, lirika, opera, fortepiano, konsert, balet, epik.

SERGEY PROKOFIEV'S PIANO WORKS AND "ALEXANDER NEVSKY" CONTATA

Abstract. This article presents the compositional works of Sergei Sergeyevich Prokofyev and vocal instrumental works written for solo, chair and orchestra by “Alexander Nevsky” contacts are discussed.

Key words: contata, drama, genre, humor, lyric, opera, piano, concert, ballet, epic.

ФОРТЕПИАННЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ СЕРГЕЯ ПРОКОФЬЕВА И КОНТАТА

«АЛЕКСАНДР НЕВСКИЙ»

Аннотация. В данной статье представлены композиторные произведения Сергея Сергеевича Прокофьева и вокально-инструментальные произведения написанные для соло, хора и оркестра “Александр Невский” контаты обсуждаются.

Ключевые слова: контата, драма, жанр, юмор, лирика, опера, фортепиано, концерт, балет, эпик.

Sergey Sergeyevich Prokofyev XX asrning buyuk kompozitorlaridan biridir. Prokofyev ijodi serqiralligi bilan ajralib turadi. O‘tkir, drama tizm, epik xarakter, humor va lirika, uning ijodiga xosdir. Prokofyev ijodi ko‘p janrlarni o‘z ichiga oladi. Dramma, operadan tortib balet va kinogacha, sonatalar, simfoniyalar, konsertlar va boshqalar. S.S. Prokofyev 1891-yil 23-aprelda Yekaterinislav guberniyasining Sansovka qishlog‘ida tug‘ildi. Otasi agronom, onasi fortepiano chalishni bilgan ziyoli ayollardan bo‘lgan. Sergey fortepiano chalishni avval onasidan o‘rgandi.

5 yoshida u birinchi Xind galopi asarini yaratdi. 10 yoshida esa Velikan operasini yozdi va o‘rtoqlari bilan xonaki spektakl yaratdi. Shunday qilib unda teatrga muxabbat paydo bo‘ldi. 1902-yildan boshlab Taneyev maslahatiga ko‘ra Prokofyev Gliyer bilan shug‘ullana boshladidi. 1909-yili u konservatoriyanı komplik bo‘limini tugatdi va N.N. Cherepnin sinfida o‘z bilimini davom ettirdi.

Bu yillarda u juda ko‘p asarlar yaratdi. Ulardan eng ko‘zga ko‘ringani fortepiano va orkestr uchun birinchi konsert. 1912-yili Moskvada birinchi marta ijro etilib Prokofyevga katta muvaffaqiyat olib keldi. 1912-1913 yillarda fortepiano va orkestr uchun Skiv syuitasi, fortepiano uchun pyesalar ba romanslar yaratdi. 1915 -yili Dostoyevskiyning asari asosida katta opera “Игрок” ni yaratdi. Prokofyev 1918-32 yillar davomida chetelda yashaydi.

Bu davrda ham u musiqaning hilmahil janrlarni ustida ishlaydi. Har xil shakllarda uning konsertlari katta muvaffaqiyat bilan otar edi. Masalan: 1921 yilda “Uchta apelsinga muxabbat” operasi, fortepiano va orkestr uchun “3- konsert”, Parijda “Masxaraboz haqida ertak” baletining premyeralari bo‘lib o‘tdi. 1936- yilda uning mashxur baleti, “Romeo va Julietta” yuzaga keldi.

Xayoti davomida: 12 ta opera, 7 ta balet, orotoriya, 6 ta kontata, 7 ta simfoniya, simfonik syuitalar, fortepiano uchun 5 ta konsert, skripka va orkestr uchun 2 ta konsert, 2 ta torli kvartet, 14 ta sonata, 30 ta romans, kinofilmlar uchun musiqalar yaratdi.

Kontata - (ital.. cantata, lot. Cantare- qo'shiq)- yakkaxon, xor va orkestr uchun yozilgan vocal instrumental asar¹. Kontata g'oya jihatidan bir biri bilan bog'liq bo'lgan bir necha nomerlardan tashkil topgan. Taniqli sovet rejissori Ser Eyzenshteyn XIII-asrda bo'lib o'tgan Novgorod knyazligining tefton ritsarlari bilan kurashi haqida filmni surtga oldi. Voqeal 1242-yilda bo'lib o'tgan edi. Film musiqasini rejissorning eng yaqin do'sti S.Prokofyev yaratdi. Film katta muvaffaqiyatga ega bo'ldi, lekin filmdagi musiqa yetarli emas edi, shuning uchun kompozitorga musiqiy material ustida ishlashni davom ettirish istagi paydo bo'ldi. S.Prokofyev yirik qismidagi mustaqil asar ya'ni kontata ustida juda ham tez ish olib bordi. 1939 yil 17-mayda Moskva konservatoriyasining katta zalida birinchi premyerasi bo'lib o'tdi. S.Prokofyev o'z kontatasida rus xalqining oliyjanob vatanparvarligini kuyladi. Knyaz Aleksandr Nevskiy o'z xalqini krestonosetslardan himoya qiladi. Kontatada rus asarlari va nemis ritslarining musiqiy mavzulari qarama qarshi qo'yilgan. Kompozitor kontataning birinchi tovushlaridan qahramonlarga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatdi. Dushmanlar musiqasi keskin, qopol, puflama cholg'ular ijrosida yangrasa, rus xalqining kuyi ohista, lirik, kuychan bo'lib torli cholg'ular ijrosida sadolanadi. Kontata 7 qismdan iborat:

- 1 Русь под игом мангольским.
- 2 Песня об Александре Невском.
- 3.Крестоносцы во Пскове.
- 4.Вставайте люди русские.
- 5.Ледовое побоище.
- 6.Мертвое поле.
- 7.Въезд Александра во Псков.

Kontata janr jihatidan o'ziga xos hususiyatga ega. Unda vokal nomer bilan birga ustaqil orkestr epizodlari ham bor. Shunday qilib vokal kontata boshlashi dasturli simfonizm hususiyatlari bilab bog'liqdir. 1. Русь под игом мангольским. Bu 3 qismli tuzilmadan iborat bo'lgan, orkestr kirish qismidir. Musiqa intonatsion jihatdan buyoqlarga boy bo'lib, rus halqining mangollar tomonidan bosib olinganligi katta qayg'u va g'am bilan aks ettirilgan.



¹ I.A Akbarov Musiqa lug'ati-Toshkent G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 40b.

2. Песня об Александра Невском. Altlar bilan to‘ldirilgan. Erkaklar xori va orkestr uchun 3 qismli reprizali shaklda yozilgan. Ruslarning shvedlar ustidan qilgan g‘alabasi haqida hikoya va yangi tayyorlanayotgan sinovlar. Kuyning bir me'yordagi harakati Prokofyevning bilina qo‘sishqlari harakteriga yaqinlashganini bildiradi. O‘rta qism “Ух как мы бились мы рубились мы” so‘zlari bilan boshlanib, bir oz jonlidir. Garmonik jihatdan butun qism diatonik I-IV, I-V pog‘onalar o‘rtasidagi plagal munosabatga asoslangan.

№ 2
Песня об Александре Невском
Song about Alexander Nevsky



3. “Крестоносцы во Пскове” I-II qismga qarama qarshi. Orkestr kirish qismidagi dissonanslar chaqiriq va nido sifatida yangraydi. Mayus kirish qismidan so‘ng krestonosetslarning “Перегренус” xori ijro etiladi.

№ 3
Крестоносцы во Пскове
The Crusaders in Pskov



Bu yerda Prokofyev o‘zi yoqtirgan uslubni butun mavzularni yoki uning parchlarini dinamik ravishda qayta ishslash va avvalgi mavzular bilan bog‘liq bo‘lgan yangi mavzu yaratishni qo‘llagan. Klassik kuy past registrda boshlanadi va ikki oktava yuqoriga kengayadi. Keng mavzuning dinamik repriza boshlanadi. Ikkinchisi mavzu fa majorda ilxom baxsh etuvchi madhiya ruxida yozilgan bo‘lib Prokofyevning oliy yutuqlaridan biridir. Mayus kirish qismi kirib kelgandan so‘ng Peregrenus xori asta ilro etiladi.

4. “Вставайте люди русские” jabr-zulm tortgan buyuk rus endi boshqa qahramon tomonidan ko‘rsatilgan. Xor ancha rivojlangan uni yorug‘ vatan urushi davrida juda ko‘pchilik yoqtirar edi. O‘rta qismdagi ajoyib D-dur dagi mavzu Mixail Ivanovich Glinkaning “Руслан и Людмила” dagi mavzuni eslatadi.

№ 4

24 Allegro risoluto $d=72$

c. The score consists of five staves. Staff 'c.' is the top staff, followed by 'A.', 'T.', 'B.', and the piano at the bottom. The piano part includes dynamic markings like 'Beata' and 'A.'. The strings play sustained notes.

A. The score consists of five staves. Staff 'c.' is the top staff, followed by 'A.', 'T.', 'B.', and the piano at the bottom. The piano part includes dynamic markings like 'Beata' and 'A.'. The strings play sustained notes.

T. The score consists of five staves. Staff 'c.' is the top staff, followed by 'A.', 'T.', 'B.', and the piano at the bottom. The piano part includes dynamic markings like 'Beata' and 'A.'. The strings play sustained notes.

B. The score consists of five staves. Staff 'c.' is the top staff, followed by 'A.', 'T.', 'B.', and the piano at the bottom. The piano part includes dynamic markings like 'Beata' and 'A.'. The strings play sustained notes.

p. The score consists of five staves. Staff 'c.' is the top staff, followed by 'A.', 'T.', 'B.', and the piano at the bottom. The piano part includes dynamic markings like 'Beata' and 'A.'. The strings play sustained notes.

Allegro risoluto $d=72$

The score consists of five staves. Staff 'c.' is the top staff, followed by 'A.', 'T.', 'B.', and the piano at the bottom. The piano part includes dynamic markings like 'Tr. bo', 'Ottoni', 'Archi', and '(b)'. The strings play eighth-note patterns.

5. “Ледовое побоище”- kontataning markaziy nomeri. U katta hajmdagi rivojlov bo‘lib, avvalgi nomerlarda yangragan dramatik mavzularni uchratish mumkin. Shuningdek yangi rus mavzular bu nomerda paydo bo‘ladi. Avval qishki peyzaj aks ettiriladi. U c-moll va gis-moll uchtovushliklari orqali ko‘rsatiladi. Rus askarlarning paydo bo‘lishi xorning “Вставайте люди русские” mavzui bilan boshlanadi. “Крестоносец” larning musiqasi qo‘pol va russlarning musiqasi esa qat’iyatli va intiluvchan harakterda yangraydi.

№5

Ледовое побоище

The Battle on Ice

6. “Мёртвое поле”- Metso soprano va orkestr uchun qo’shiq 6-qism kontataning yagona yakkaxon uchun yozilgan nomeri. Katta jangdan so‘ng ayol ovozining torli cholg‘ular ijrosidagi lirik qo’shig‘I yangraydi. Bu qo’shiq vafot etkanlarni xotirlash qo’shigo‘idir. Qo’shiqning qayg‘uli kuyini Prokofyev xalq yig‘ilari intonatsiyalari asosida yaratgan.

№ 6
Мертвое поле
Field of the Dead



7. “Въезд Александра во Псков” Finalda rus xalqining g‘alabasini ulug‘lovchi xori yangraydi. Kontataning tanish bo‘lgan mavzulari “Вставайте люди русские” va “Песня об Александре Невском” birlashtiradi. Birinchi qahromonona mavzu 4 ovozli xor yordamida, madhiya ruhida, tantanovor harakterda sadolanadi. Ikkinci mavzu ham xor yordamida ohista tempda ijro etiladi.

№ 7
Въезд Александра во Псков
Alexander’s Entry in Pskov



Xulosa qilib aytganda “Александр Невский” kontatasi Sergey Sergeyevich Prokofyevning ijodida asosiy o‘rinni egallaydi, chunki kontatadagi mavzu qahromonona epik milliy mavzu bo‘lib, bu mavzu “Urush va tinchlik” operasida, “Ivan Grozniy” musiqasida va boshqa asarlarda rivojlandi. Xozirgi kunda Prokofyevning asarlari yirik orkestrlarda ijro etilib kelinmoqda.

REFERENCES

1. I.A Akbarov Musiqa lug‘ati-Toshkent G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1987, 450b.
2. Прокофьев С.С. “Александр Невский” контата для меццо сопрано, хора и оркестр соч 78- Москва Музыка 1971-88 с.
3. Вишневецкий И. Г. Сергей Прокофьев – Москва. 2009г (Жизнь за мечательных людей).
4. Прокофьев С.С. Поле мёртвых: из контаты “Александр Невский”- Москва 2006 г.
5. Путеводитель по диску “Александр Невский”: Великие композиторы Москва 2006- 181c